

## KONSEPT – LEKSIKOGRAFIK TAVSIF OB'EKTI SIFATIDA

**Nargiza Maxsudova Aslanbekovna**

*Andijon davlat chet tillari instituti, ingliz tili amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi  
[mahsudovanargiza277@gmail.com](mailto:mahsudovanargiza277@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda insonning konsept orqali o'ylashi, ularni birlashtirishi, fikrlashi jarayonida yangi tushunchalarni shakllantirishi va shuning uchun konsept global fikrlash birligi sifatida tushunilishi to'g'risida, shuningdek konseptni talqin qilishga bir tomonlama yondashuv uning tabiatini haqida to'liq tasavvur bermasligi, til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha so'nggi tadqiqotlar tushunchalarni nafaqat falsafiy, balki lingvistik, madaniy hamda boshqa jihatlarda ham ko'rib chiqishga imkon berishi to'g'risida ma'lumot beradi.

**Аннотация.** В этом тезисе человек продумывает понятие, комбинирует их, образует в процессе мышления новые понятия, в связи с чем под понятием понимается глобальная единица мысли, а также то, что односторонний подход к интерпретации Концепт не дает полного представления о его природе, новейшие исследования взаимосвязи языка и мышления показывают, что концепты не только дают информацию, позволяющую рассматривать их в философском, но также лингвистическом, культурологическом и других аспектах.

**Abstract.** In this thesis, a person thinks through a concept, combines them, forms new concepts in the process of thinking, and therefore the concept is understood as a global unit of thought, as well as the fact that a one-sided approach to the interpretation of the concept does not give a complete picture of its nature, recent studies on the relationship between language and thinking show concepts not only provides information that allows consideration in philosophical, but also linguistic, cultural, and other aspects.

**Kalit so'zlar:** konsept, aqliy faoliyat, tafakkur, lingvokultural, tushuncha, lingvistik muloqot

**Key words:** concept, mental activity, thinking, linguocultural, understanding, linguistic correspondence

**Ключевые слова:** концепт, умственная деятельность, мышление, лингвокультурное, концептуальное, языковое общение.

Gumanitar bilimlar paradigmasini mantiqiy, tizimli tuzilmadan antropotsentrikka yo'naltirish kognitiv, lingvistik va konseptual muammolarni birinchi o'ringa olib chiqdi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida va hozirgi vaqtgacha kognitiv tilshunoslik jadal rivojlandi.

Kognitiv tadqiqotlarning nazariy asoslari faol ishlab chiqilmoqda, tillarning semantik, madaniy va lingvistik sohalari hamda ularni tashkil etuvchi konseptlar o'rganilmoqda.

Ma'lumki, odamlarning ob'ektiv voqelik haqidagi bilimlari inson faoliyatining turli sohalarini aks ettiruvchi konsept, mavhum mental tuzilmalar shaklida mavjud bo'ladi. Inson konsept orqali o'ylaydi, ularni birlashtiradi, fikrlash jarayonida yangi tushunchalarni shakllantiradi. Shuning uchun konsept global fikrlash birligi sifatida tushuniladi. Konseptlarni o'rganish tilshunoslikning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tilshunoslik faniga "konsept" atamasining kiritilishi gumanitar bilimlarlarning antropotsentrik yo'nalishga o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, u odamni "hamma narsaning o'lchovi" maqomiga va koinot markaziga qaytardi<sup>1</sup>.

Konsept – bu inson ongida to'g'ridan-to'g'ri hissiy tajribadan (sezgi organlari); insonning ob'ekt bilan bevosita operatsiyalaridan (ob'ektiv faoliyat); aqliy faoliyat orqali boshqa allaqachon shakllangan tushunchalar bilan o'zaro ta'siridan; lingvistik muloqotdan hosil bo'lgan ideal mavjudot<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup>Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт. Становление антропоцентрической парадигмы в языкознании / С.Г. Воркачев // НДВШ. Филологические науки. 2001. №1. – 64 с.

<sup>2</sup>Попова З.Д. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж, 2001. – 190 с.

“Konsept” atamasi lingvistikating hozirgi rivojlanish bosqichida aniq izohga ega emas. Konseptning ko‘plab ta’riflari va konseptual tahlil usullari ishlab chiqilgan. Tadqiqotchilar konseptning ta’rifini keltirishda uning ayrim jihatlariga, tadqiqot olib boriladigan fan doirasida eng muhim bo‘lib ko‘rinadigan xususiyatlariga asoslanadilar.

Kognitiv tilshunoslik vakillari (A.P.Babushkin<sup>3</sup>, E.S.Kubryakova<sup>4</sup>, Z.D.Popova va I.A.Sternin<sup>5</sup>), birinchi navbatda, konseptning mental mohiyatini ta’kidlaydilar. N.D.Arutyunova<sup>6</sup>, S.G.Vorkachev<sup>7</sup>, V.I.Karasik<sup>8</sup>, G.G.Slishkin<sup>9</sup>, YU.S.Stepanov<sup>10</sup> kabi tadqiqotchilar lingvokultural yondashuv asosida konseptni aniqlashda etnomadaniy shartlilik muhimligiga urg‘u berishadi. Konseptni tushunishning lingvokognitiv, lingvokultural, psixolingvistik, tarixiy va madaniy yondashuvlari bir-birini inkor qilmaydi, chunki ular bir xil hodisaning turli jihatlarini tadqiq etadi. Konseptni talqin qilishga bir tomonlama yondashuv uning tabiatи haqida to‘liq tasavvur bermaydi. Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlar tushunchalarni nafaqat falsafiy, balki lingvistik, madaniy hamda boshqa jihatlarda ham ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Til nazariyasida konseptning turli jihatlari tadqiq etilgan. U.D.Kambaralievaning “Темпоральная категоризация в концептуальной картине мира”<sup>11</sup> (“Dunyoning konseptual manzarasida temporal kategoriyalash”) monografiyasi dunyoning konseptual manzarasi bilan bog‘liq nazariy muammoni

---

<sup>3</sup>Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж, 1996. – 281 с.

<sup>4</sup>Кубрякова Е.С. Роль словообразования в формировании картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – 141 с.

<sup>5</sup>Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие концепта в лингвистических исследованиях / З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж, 1999. – 30 с.

<sup>6</sup>Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка, событие, факт. – М., 1988. – 339 с.

<sup>7</sup>Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт / С.Г. Воркачев. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 192с.

<sup>8</sup>Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В. И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477с.

<sup>9</sup>Слышик Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / Г. Г. Слышик. – М.: Academia, 2000. – 128 с.

<sup>10</sup>Степанов Ю.С. Концепт // Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – 824 с.

<sup>11</sup>Камбаралиева У.Д. Темпоральная категоризация в концептуальной картине мира. – Бишкек, 2013. – 490 с.

chuqur o'rganishga bag'ishlangan.

"Концепт скромность в русской, американской и иранской лингвокультурах"<sup>12</sup> ("Rus, Amerika va Eron lingvokulturologiyasida kamtarlik konsepti") dissertatsiyasida O.V.Koshmanova ushbu xalqlar madaniyatidagi kamtarlik tushunchasiga to'liq tavsif beradi. Muallifning fikricha, kamtarlik tushunchasi ijtimoiy-axloqiy regulyator hisoblanadi.

Z.K.Derbishevaning "Ключевые концепты кыргызской лингвокультуры" ("Qirg'iz lingvokulturologiyasida asosiy konseptlar") monografiyasida ijtimoiy-madaniy, antropomorfik, milliy-madaniy, ma'naviy va axloqiy konseptlar tasvirlangan<sup>13</sup>.

A.N.Usacheva o'zining "Концепт здоровье в английской и русской лингвокультурах" ("Ingliz va rus til madaniyatlarida salomatlik tushunchasi") ilmiy ishida konseptning freym tuzilmalari va leksik vositalarini verbal ravishda tadqiq qiladi<sup>14</sup>.

E.YU.Balashova "Концепт любовь и ненависть в русском и американском языковых сознаниях" ("Rus va Amerika lingvistik ongida sevgi hamda nafrat tushunchasi") dissertatsiyasida sevgi va nafrat konseptlarining Rossiya hamda AQSHning lingvistik madaniyatlarida milliy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiladi<sup>15</sup>.

E.T.Telekova "Концепт ребёнок в киргызском языке (в аспекте лингвокультроведении)" ("Qirg'iz tilida bola konsepti) (lingvokulturologik aspektida) ilmiy ishida qirg'iz tilida bola konseptini lingvistik va madaniy tadqiqotlar hamda kognitiv tilshunoslik doirasida chuqur o'rgangan<sup>16</sup>.

Konseptlarni o'rganish zarurati etnosning rivojlanishi bilan insoniyat o'sishda davom etmoqda va ularning hajmi, tuzilishi, chegaralari va ma'no yo'nalishi doimiy

---

<sup>12</sup>Кошманова О.В. Концепт скромность в русской, американской и иранской лингвокультурах: Автореферат дисс. на соис. уч.ст. канд.фил.наук. – Волгоград, 2007.-22 с.

<sup>13</sup>Дербишова З.К. Ключевые концепты кыргызской лингвокультуры. – Б., 2012. – 176 с.

<sup>14</sup>Усачёва А. Н.Здоровье / А. Н. Усачева // Антология концептов / под. ред. В.И.Карасика, И.А.Стернина. – Москва: Гнозис, 2007. – 101 с.

<sup>15</sup>Балашова Е.Ю. Концепты любовь и ненависть в русском и американском языковых сознаниях: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2004. – 20 с.

<sup>16</sup>Төлөкова Э.Т. Кыргыз тилиндеги «Бала» концепти (Лингвомаданият таануу илиминин аспектиси боюнча): Филол. илим. канд. ... дис. – Бишкек, 2012. – 30 с.

ravishda o'zgarib turadi.

Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda "konsept" atamasi gumanitar fanlarning turli sohalarida, jumladan, adabiyotshunoslik, falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik va tilshunoslikda keng qo'llaniladi. Fanda "konsept" atamasining ko'plab talqinlari mavjud.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт. Становление антропоцентрической парадигмы в языкоznании / С.Г. Воркачев // НДВШ. Филологические науки. 2001. №1. – 64 с.
2. Попова З.Д. Очерки по когнитивной лингвистике.–Воронеж,2001.190 с.
3. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж, 1996. – 281 с.
4. Кубрякова Е.С. Роль словообразования в формировании картины мира// Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира.М:Наука,1988.141с.
5. Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие концепта в лингвистических исследованиях / З.Д. Попова, И.А.Стернин. – Воронеж, 1999. – 30
6. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка, событие, факт. – М., 1988.–339 с.
7. Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт / С.Г. Воркачев. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 192с.
8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В. И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477с.
9. Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе/Г.Г.Слышкин.–М.:Academia, 2000. – 128 с.
10. Степанов Ю.С. Концепт./Степанов Ю.С. Константы:Словарь русской культуры. Опыт исследования.–М.:Школа“Языки русской культуры”,1997. 824с.